

**BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLARNI TUZISH, TASDIQLASH  
VA TAQDIM ETISH TARTIBINING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI**

**Norqulova Qutlug'nigor Oloviddinovna**

*Toshkent Moliya instituti 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada budjet tashkilotlarida moliyaviy hisobotlar tuzish jarayonining ahamiyatini o'rganish, ularning nazariy-amaliy jihatlarini asoslab berish, xalqaro tajriba va standartlarga asoslanib moliyaviy hisobotlarning axborot imkoniyatlarini kengaytirish orqali mamlakatimizda budjet hamda buxgalteriya hisobini yanada takomillashtirish to'g'risida to'xtalib o'tildi.*

**Kalit sozlar:** *Budjet, budjet tashkiloti, davlat sektori, moliya yili, moliyaviy hisobot, hisobot davri, budjet mablag'i.*

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash sharoitida davlat moliyasi tizimida chuqur iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlar, bir qator vazifalar bilan birgalikda, budjet tizimi budjetlarining buxgalteriya hisobini yuritish samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Bunda budjet hisobi va buxgalteriya hisobini yuritishning yangi standartlarini takomillashtirish, elektron dasturiy majmualarning yangi versiyalarini yaratish, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari, elektron hisoblash mashinalari va boshqa texnik vositalar yordamida axborotni jamlash, qayta ishlash, uzatish qoidalari va usullarini o'zlashtirish asosida axborotlashtirishni yanada rivojlantirish talab etiladi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o'z ma'ruzalarida ta'kidlaganlaridek, - "Iqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat byudjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darajasibarqaror bo'lishini ta'minlash - eng muhim ustuvor vazifamizdir."<sup>20</sup>

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning amalga oshirilishi bugungi kunda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlarning asosi sifatida qaralmoqda va bu o'zgarishlar barcha sohalarni qamrab olgan holda o'z samarasini bermoqda. Xususan, davlat sektorida islohotlarni amalga oshirish bu boradagi tashkiliy-metodik me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, xorijiy tajribani o'rgangan holda milliy iqtisodiyotimizga xalqaro standartlarni joriy etishni taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasining davlat sektorida buxgalteriya hisobi va hisobotini takomillashtirish byudjet tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi.

Budjet tashkilotlarining va budjet mablag'lari oluvchilarning yillik moliyaviy hisobotlari kelgusi hisobot yilining 1-yanvar holatiga tuziladi. Choraklik moliyaviy


<sup>20</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojatnomasi . 2020-yil 25-yanvar.

hisobotlar hisobot yilining 1-aprel, 1-iyul va 1-oktabr holatiga tuziladi<sup>21</sup>. Budget tashkilotlarining va budget mablag'lari oluvchilarning moliyaviy hisobotlari mazkur tashkilotlarning rahbari yoki u vakolat bergan shaxs hamda bosh buxgalteri tomonidan imzolanadi. Budget mablag'larini taqsimlovchilar O'zbekiston Respublikasining respublika budgetidan moliyalashtiriladigan o'z tasarrufidagi tashkilotlarning moliyaviy hisobotlari asosida choraklik va yillik jamlanma moliyaviy hisobotlarni tuzadi hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga taqdim etadi.

Tasarrufdagi tashkilotlar uchun moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari budget mablag'larini taqsimlovchi tomonidan o'zi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga jamlanma moliyaviy hisobotlarni taqdim etadigan muddatlar hisobga olingan holda belgilanadi.

Budget mablag'larini taqsimlovchilarning jamlanma moliyaviy hisobotlari budget mablag'larini taqsimlovchining rahbari yoki u vakolat bergan shaxs va bosh buxgalter tomonidan imzolanadi.

Budget tashkilotlari tomonidan topshiriladigan choraklik moliyaviy hisobotlar tarkibiga 9 ta moliyaviy hisobotlar kiradi:



**1-rasm. Budget tashkilotlarida topshiriladigan choraklik moliyaviy hisobotlar.<sup>22</sup>**

Budget tashkilotlari tomonidan topshiriladigan yillik moliyaviy hisobotlar tarkibiga 10 ta moliyaviy hisobot turlari kiradi, ular quyidagilar kiradi:

<sup>21</sup> O'zbekiston Respublikasi budget hisobining standarti (3-sonli BHS) "Budget hisoboti". O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 18-yanvarda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3124.

<sup>22</sup> Ramazonov A.G'aniyev Sh.V, Norqo'chqorov A.Z. "Budget hisobi". O'quv qo'llanma. T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2020 yil. 173 b





**2-rasm. Budjet tashkilotlarida topshiriladigan yillik moliyaviy hisobotlar.**<sup>23</sup>

Budjet tashkilotlari va budjet mablag'lari oluvchilarning choraklik hamda yillik moliyaviy hisobotlarni tuzish, tasdiqlash va taqdim etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmati moliyaviy hisobotlarni quyi muassasalar kesimida tuzadi hamda jamlangan holda taqdim etadi.

Budjet tashkilotlari tarmoq, shtat va kontingentlar rejalarining bajarilishi to'g'risidagi hisobotlarni O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlari bo'yicha tarmoq, shtatlar va kontingentga doir rejaning bajarilishi to'g'risidagi choraklik va yillik hisobot shakllarini tasdiqlash haqidagi buyruqqa muvofiq tuzadi va topshiradi.

Yillik va choraklik moliyaviy hisobotlarga tushuntirish xati ilova qilinadi. Ushbu tushuntirish xatida byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar ijrosi jarayonida vujudga kelgan asosiy omillar, jumladan, byudjetdan ajratilgan mablag'larni iqtisod qilinishining sabablari (tahlillari) (agarda iqtisod qilingan bo'lsa), debitorlik va kreditorlik qarzlarning vujudga kelish sabablari va davri, agarda muddati o'tgan qarzdorlikka yo'l qo'yilgan bo'lsa, undirish bo'yicha ko'rilgan choralar, qonunchilikka muvofiq tashkilotlarga soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha berilgan imtiyozlar natijasida bo'shab qolgan mablag'lar va ularning sarflanishi, shuningdek, tashkilot tomonidan hisobot davrida kirim qilingan va sarflangan qog'oz to'g'risidagi ma'lumotlar, o'g'irlik va kamomadlar to'g'risidagi ma'lumotlar va moliyaviy hisobotlar

<sup>23</sup> Ramazonov A.G'aniyev Sh.V., Norqo'chqorov A.Z. "Budjet hisobi". O'quv qo'llanma. T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2020 yil. 173 b

bilan bog'liq bo'lgan boshqa tushuntirishlar keltiriladi. Bundan tashqari, hisobot yilining birinchi choragi bo'yicha moliyaviy hisobotlarga tushuntirish xatida asosiy vositalar va boshqa aktivlarni (jumladan, tugallanmagan qurilish va o'rnatiladigan asbob-uskunalar) qayta baholash bo'yicha axborotlar ochib beriladi.<sup>24</sup>

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi budget hisobining standarti (3-sonli BHS) "Budget hisoboti".O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019-yil 18-yanvarda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 3124.

2. Ramazonov A.G'aniyev Sh.V,Norqo'chqorov A.Z."Budget hisobi".O'quv qo'llanma.T.:"IQTISOD-MOLIYA".2020 yil.173 b

3. A.J.Tuychiyev, A.A.Ostonokulov, K.Sh.Ibragimov A.S.Tursunov. Byudjet hisobi. Darslik. T.:"IQTISOD-MOLIYA".2018 yil.266 b.

4. www.lex.uz - (O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi);

---

<sup>24</sup> A.J.Tuychiyev, A.A.Ostonokulov, K.Sh.Ibragimov A.S.Tursunov. Byudjet hisobi. Darslik. 2018 yil.266 b.